

"Humans Market" marketpleysi qoidalari

18.04.2025 yil tahriri

"Humans Market" marketpleysining ushbu Qoidalari (bundan buyon matnda Bitim deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq "HUMANS TRADING" MChJning, manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 2 b uy, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami 2338534, STIR 310993793 (bundan buyon matnda "Humans" deb yuritiladi) ommaviy ofertasi bo'lib, muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar – Xaridorlarga yo'naltirilgan.

Bu Bitim har qanday Xaridorga quyida ko'rsatilgan shartlar asosida Bitim tuzish uchun Humans'ning ommaviy taklifi (oferta) hisoblanadi. Xaridor "Humans Market" marketpleysidan foydalanishdan oldin ushbu Bitim bilan to'liq tanishib chiqishi shart. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish, birinchi buyurtmani amalga oshirish, shuningdek, "Humans Market" marketpleysining har qanday funksiyalari, dasturiy imkoniyatlaridan foydalanish ushbu ofertaning aksepti hisoblanadi va Xaridor tomonidan ushbu Bitimning to'liq va so'zsiz qabul qilinganligini anglatadi.

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Atama	Ta'rif
"Avtorizatsiya"	Mobil ilovaga kirish uchun login (e-mail) yoki telefon raqami va parolni kiritish orqali Xaridorni identifikatsiya qilish jarayoni.
"Bloklash"	Marketpleysda Xaridorning harakatlarini amalga oshirishni taqiqlash.
"Buyurtmani rasmiylashtirish"	Xaridorning Sotuvchi bilan mahsulot oldi-sotdi shartnomasini tuzishga va/yoki Sotuvchi bilan mahsulotni yetkazib berish shartnomasini tuzishga qaratilgan harakatlari. Har bir buyurtmaga alohida raqam beriladi.
"Mobil ilova"	Mobil operatsion tizimlar uchun Humans.uz ilovasidan iborat bo'lgan, Xaridorning foydalanuvchi abonent qurilmasiga (smartfon, planshet) o'rnatiladigan, Xaridorlarga shu jumladan Marketpleysdan foydalanish imkonini beradigan dasturiy ta'minot.
"Humans Market", "Marketpleys"	Xaridorga Mahsulot haqida ma'lumot olish, uni Sotuvchidan buyurtma qilish, Mahsulot uchun to'lovni amalga oshirish va uni yetkazib berish shartlarini ko'rsatish imkonini beruvchi Humans servisi.
To'lov hamkor, Elektron pullar tizimi operatori	Xaridorlarning to'lovlari elektron shaklda qayta ishlashni va to'lovni amalga oshirish uchun banklarga yoki boshqa to'lov

	tashkilotlariga zarur axborotni berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.
"Noqonuniy harakatlar"	Huquqni suiste'mol qilish, shuningdek aldash va (yoki) ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan g'arazli maqsadlarda sodir etilgan hamda o'zganing mulkini (pul mablag'lari va boshqa moddiy boyliklarni) qonunga xilof ravishda egallahsga qaratilgan harakatlar.
"Xaridor"	Buyurtma berish yoki sotib olish niyatida bo'lgan yoki Buyurtma bergan, Marketpleysda Mahsulotlarni buyurtma qilish orqali Sotuvchidan masofadan turib Mahsulotlarni sotib olayotgan va Mahsulotdan faqat iste'mol maqsadlarida (tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy, maishiy va boshqa maishiy (kundalik) ehtiyojlar (maqsadlar) uchun foydalanayotgan jismoniy shaxs.
"Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslash siyosati"	Humans'ning Xaridorlarning shaxsiy ma'lumotlarini toplash va qayta ishslashni tartibga soluvchi https://market.humans.uz/ sayti va mobil ilovasida joylashtirilgan taklifi. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun Humans tomonidan ko'rildigan tashkiliy va texnik choralar.
"Sotuvchi"	Mahsulotlarni Marketpleys orqali Xaridorga masofaviy usulda sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va Marketpleysda ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagи tadbirdor, yuridik shaxs yoki kasbga oid daromad solig'ini to'lovchi.
"Mahsulot"	Sotuvchi va Xaridor o'rtaida tuziladigan oldi-sotdi shartnomasining predmeti bo'lgan, fuqarolik muomalasida erkin foydalanish mumkin bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan mahsulotlarni anglatadi.
"Buyurtma"	Xaridorning Mahsulotni sotib olish (Sotuvchi bilan Mahsulotni sotish shartnomasini tuzish) va uni Xaridor tanlagan usulda ko'rsatilgan manzilga yetkazib berish to'g'risidagi so'rovi.
"To'lov"	Mahsulotlar uchun to'lash va ularni yetkazib berish maqsadida Xaridorning Sotuvchi oldidagi pul majburiyatini bajarish.

Bitimda Bitimning ushbu bo'limida belgilanmagan atamalar qo'llanilishi mumkin. Bunday holda, agar Bitim matnida boshqacha qoida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday atamani talqin qilish "Humans" sodiqlik dasturi qoidalari matniga muvofiq amalga oshiriladi.

1. BITIM PREDMETI

1.1. Mazkur bitim Humans va Xaridor, Sotuvchi va Xaridor o'rtaida Marketpleysdan foydalanishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Sotuvchi va Xaridor o'rtaida

Marketpleysdan foydalangan holda tuziladigan oldi-sotdi shartnomasining muhim va boshqa shartlari, shuningdek ularni belgilash usullari ushbu Bitimda belgilangan, muayyan Sotuvchining Mahsulot kartochkasida boshqacha qoida to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilangan hollar bundan mustasno.

2. RO‘YXATDAN O‘TISH VA AVTORIZATSIYA

2.1. Marketpleysdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun Xaridor Humans mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tishi yoki avtorizatsiya qilinishi hamda ushbu Bitim va Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash siyosati shartlarini qabul qilishi zarur.

2.2. Xaridor Mobil ilovaga kirish uchun parolni mustaqil ravishda yaratadi. Shu bilan birga, Humans parolni shakllantirishda unga talablar qo‘yish huquqiga ega (uzunligi, ruxsat etilgan belgilar va boshqalar).

2.3. Bitim Tomonlari ushbu Bitimni tuzish va bajarish uchun muomala layoqtiga ega ekanliklarini kafolatlaydilar.

2.4. Mobil ilovaga kirish uchun Xaridorning login va paroli Humans Market’ga kirish uchun zarur va yetarli ma’lumot hamda Xaridorning bir qiymatli identifikatsiyasi hisoblanadi.

3. XARIDLARNI AMALGA OSHIRISH

Buyurtmani rasmiylashtirish

3.1. Marketpleys yordamida Xaridor Mahsulotlar haqidagi ma’lumotlarni qidirishi va kerakli Mahsulotni sotib olishi mumkin.

3.2. Xaridor uchun Mahsulotni olishning quyidagi usullari mavjud: Xaridor tomonidan ko‘rsatilgan manzilga Sotuvchining kuchi bilan yetkazib berish.

3.3. Buyurtmani amalga oshirishda xaridor:

- Mahsulotni sotayotgan Sotuvchi bilan bevosita shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. Marketpleysdagi "Buyurtma qilish" (yoki shunga o‘xshash ma’noga ega boshqa) tugmasini bosish orqali Xaridor ushbu Bitimda va Marketpleysdagi Mahsulot kartochkasida belgilangan shartlarda Sotuvchi bilan chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzadi, unda Mahsulot, uning xususiyatlari (mavjud bo‘lsa), Mahsulot narxi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettiriladi. Mahsulot miqdori Buyurtmani shakllantirishda Xaridor tomonidan ko‘rsatiladi.
- Agar Xaridor tomonidan Mahsulotni Xaridorning joylashgan joyigacha yetkazib berish tanlangan bo‘lsa, Sotuvchi yoki Sotuvchi tomonidan jalb qilingan uchinchi shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan Mahsulotni yetkazib berish xizmatlarining buyurtmachisi hisoblanadi.

3.4. Sotuvchi Mahsulotni Xaridorga yetkazib berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni uchinchi shaxslarga topshirishi mumkin, shu bilan birga uning yetkazib berilishi uchun javobgar bo‘lib qoladi. Agar yetkazib berish uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilsa, Sotuvchi ularga bunday yetkazib berishni tashkil etish uchun Xaridorning zarur bo‘lgan aloqa ma’lumotlarini uzatadi.

3.5. Mobil ilovada Buyurtma qilish orqali ("Buyurtma qilish" yoki boshqa shunga o'xshash tugmani bosish orqali) Xaridor quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Mahsulotlar (xizmatlar) to'g'risidagi axborot Xaridorning e'tiboriga to'liq hajmda yetkazilgan. O'zbekiston Respublikasi FK 427-moddasiga muvofiq, Sotuvchi Xaridorga sotishga taklif qilinayotgan mahsulot to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda odatda qo'yiladigan, bunday axborotning mazmuni va taqdim etish usulla-riga qo'yiladigan talablarga mos keladigan zarur va ishonchli axborotni taqdim etish majburiyatini oladi.
- u ushbu Bitim bilan to'liq tanishib chiqqan va uni to'liq tushunadi, shuningdek, Sotuvchi bilan tuzilgan Mahsulotning chakana oldi-sotdi shartnomasi predmeti va shartlarini tushunadi va ularga rozilik bildiradi.
- Xaridor Mahsulotni sotishning barcha muhim shartlari bilan tanishdi. Mahsulotni sotishning muhim shartlari Sotuvchi tomonidan Mahsulot tavsifi sahifasida ko'rsatiladi.
- Xaridor Mahsulotni yetkazib berish bo'yicha barcha shartlar, jumladan, yetkazib berish narxi, yetkazib berish muddatlari bilan tanishib chiqdi va rozilik bildirdi.

3.6. Buyurtmani topshirishni tasdiqlash uchun Xaridorga SMS yoki push-bildirishnoma yuboriladi yoki boshqa shunga o'xshash tasdiqlash usuli qo'llaniladi.

3.7. Sotuvchining Mahsulotni topshirish bo'yicha majburiyatlari va Mahsulotni topshirish bilan bog'liq boshqa majburiyatlar Mahsulotning omborda mavjudligi tasdiqlangan paytdan boshlab yuzaga keladi. Agar Mahsulot uchun to'lov amalga oshirilgandan so'ng, Mahsulotning kerakli miqdorda omborda yo'qligi yoki Buyurtmada ko'rsatilgan miqdordagi Mahsulotni yetkazib berish imkoniyati yo'qligi aniqlansa, Sotuvchi Buyurtmani bekor qilish yoki Xaridorga uni o'zgartirishni taklif qilish huquqiga ega. So'nggi holatda Buyurtmani o'zgartirish Xaridorning Sotuvchi vakillari bilan aloqasi, shu jumladan telefon yoki boshqa aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin. Xaridor va Sotuvchi tomonidan Buyurtmani o'zgartirish kelishilgan paytdan boshlab, Buyurtma tegishli ravishda o'zgartirilgan hisoblanadi.

3.8. Xaridor Sotuvchi bilan tuzilgan Mahsulotlarni yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini, shuningdek, Sotuvchi bilan tuzilgan Mahsulotlarning oldi-sotdi shartnomasini tuzish va bajarish bo'yicha o'z harakatlarining ahamiyati va oqibatlarini to'liq tushunadi.

3.9. Mahsulot Sotuvchining mulki bo'lgan grafik tasvir-namunalar orqali taqdim etilgan.

3.10. Monitorlarning texnik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli, Mahsulotning rangi Marketpleysda taqdim etilganidan farq qilishi mumkin. Mahsulotning tashqi ko'rinishi Marketpleysda tavsiflanganidan farq qilishi mumkin.

3.11. Mahsulotning Mobil ilovada joylashganligi uning mavjudligini kafolatlamaydi.

Mahsulot uchun to'lov

3.12. Marketpleysdan foydalangan holda amalga oshirilgan buyurtmalar uchun to'lov naqd yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Muayyan Mahsulot uchun to'lov usuli uning

kartochkasida ko'rsatilgan. Mavjud naqd pulsiz to'lov usullari: bank kartalari, mobil ilovadagi biriktirilgan karta.

3.13. Xaridor Sotuvchi foydasiga to'lovnini To'lov hamkorini / Elektron pullar tizimi operatorini jalb qilgan holda amalga oshiradi.

3.14. Amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Buyurtma uchun hisob-kitob qilishda elektron chek Xaridorga Mobil ilovada Buyurtma tafsilotlari to'g'risidagi ma'lumotlarda taqdim etiladi.

3.15. Mahsulotning narxi va yetkazib berish qiymati milliy valyutada – so'mda ko'rsatiladi va barcha tegishli soliqlarni o'z ichiga oladi.

3.16. Xaridor uchun Marketpleysdan foydalanish bepul. To'lovlarini amalga oshirishda Xaridor To'lov hamkori / Operatorning saytlarida joylashtirilgan ofertalariga muvofiq To'lov hamkori / Elektron pul tizimi operatori (keyingi o'rinnlarda "Operator" deb ataladi) tomonidan belgilanadigan komissiyani to'laydi. Bundan tashqari, agar alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, Humans hech qanday to'lov yoki komissiya olmaydi.

3.17. Humans Xaridorga to'lov xizmatlarini ko'rsatmaydi. Humans To'lov hamkori va Operatorning texnologik hamkori bo'lib, Xaridor va To'lov hamkori o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydi.

Xaridorning Mahsulot sifatiga e'tiroz bildirmasdan undan voz kechishi

3.18. Xaridor tegishli sifatli Mahsulotdan voz kechishga haqli:

3.18.1. uni yetkazib berishga topshirishdan oldin (bu haqida Xaridorga SMS, shuningdek, Mobil ilovada xabar beriladi) istalgan vaqtida,

3.18.2. Mahsulot topshirilgandan so'ng, agar mahsulot biron-bir kamchiliklarga ega bo'lmasa, lekin o'lchami, rangi, texnik xususiyatlari va boshqa sabablarga ko'ra mos kelmasa, Xaridor xarid qilingan kundan boshlab 10 kalendar kun ichida tegishli sifatli nooziq-ovqat mahsulotini qaytarish, Sotuvchidan xuddi shunday mahsulotga almashтирish va pul mablag'larini qaytarib olish huquqiga ega (agar qo'llanilishi mumkin bo'lsa).

3.19. Tegishli sifatdagi mahsulotni qaytarish, agar mahsulot ishlatilmagan bo'lsa, shtrix-kodli (QR-kodli) o'ram, zavod yorliqlari, plombalar saqlanib qolgan bo'lsa, mahsulot ko'rinishi, iste'mol xususiyatlari, shuningdek, ko'rsatilgan mahsulotni sotib olish faktini tasdiqlovchi hujjat saqlanib qolgan bo'lsa, amalga oshirilishi mumkin.

3.20. Agar bunday mahsulotning tashqi ko'rinishi ishlab chiqaruvchining iste'mol o'rami bilan birga uni keyinchalik boshqa xaridorga sotish imkonini bersa, mahsulot turi saqlangan deb e'tirof etiladi. Qadoqning yo'qligi/shikastlanganligi, mahsulotni qayta sotishga yo'naltirishga imkon bermaydigan foydalanganlik izlari (shu jumladan bir martalik) Sotuvchi tomonidan mahsulotni keyinchalik sotishga to'sqinlik qiladi va mahsulot ko'rinishining saqlanmaganligidan dalolat beradi.

3.21. Oziq-ovqat mahsulotlarini (shu jumladan biologik faol qo'shimchalarni), odamlar va hayvonlar uchun vitaminlarni, hayvonlar uchun ozuqalar va preparatlarni qaytarish faqat ularni olgunga qadar yoki olish paytida mumkin.

3.22. Xaridorlar tegishli sifatga ega bo'lgan, qaytarilmaydigan yoki shunga o'xshash mahsulotga almashtirilmaydigan nooziq-ovqat mahsulotlarining amaldagi qonunchilik bilan tartibga solingan ro'yxati bilan tanishtirilishi lozim:

1. Uy sharoitida kasalliklarning oldini olish va davolash uchun tovarlar (metall, rezina, to'qimachilik va boshqa materiallardan tayyorlangan sanitariya va gigiyena buyumlari, tibbiy asboblar, priborlar va apparatura, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi vositalari, linzalar, bolalarni parvarish qilish buyumlari, dori-darmonlar).
2. Shaxsiy gigiyena buyumlari (tish cho'tkalari, taroqlar, to'g'nag'ichlar, soch uchun bigudi, pariklar, shinyonlar va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar).
3. Atir-kosmetika mahsulotlari.
4. To'qimachilik mahsulotlari (paxta, zig'ir, ipak, jun va sintetik gazlamalar, gazlama turidagi noto'qima materiallardan - tasmlar, jiyaklar, to'rlar va boshqalardan tayyorlangan mahsulotlar); kabel mahsulotlari (simlar, shnurlar, kabellar); qurilish va pardozlash materiallari (linoleum, plyonka, gilam qoplamlari va boshqalar) va metrlab sotiladigan beriladigan boshqa mahsulotlar.
5. Tikuv va trikotaj buyumlari (tikuv va trikotaj choyshab buyumlari, paypoq va qo'lqop buyumlari).
6. Polimer materiallardan tayyorlangan, shu jumladan bir martalik foydalanish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aloqada bo'ladigan buyumlar va materiallar (oshxonalar idishlari va anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va tashish uchun idishlar va qadoqlash materiallari).
7. Maishiy kimyo mahsulotlari, pestitsidlar va agrokimyoviy mahsulotlar.
8. Mebel (mebel garniturulari va to'plamlari).
9. Qimmatbaho metallardan, qimmatbaho toshlar bilan, yarim qimmatbaho va sintetik toshlardan qo'shimchalar bilan qimmatbaho metallardan buyumlar, qirrali qimmatbaho toshlar.
10. Avtomobillar va motovelotovarlar, tirkamalar va ularga raqamli agregatlar; qishloq xo'jaligi ishlarini kichik mexanizatsiyalashning mobil vositalari; sayrga mo'ljallangan kemalar va boshqa maishiy suzish vositalari.
11. Kafolat muddati belgilangan texnik jihatdan murakkab maishiy mahsulotlar (maishiy metall kesish va yog'ochga ishlov berish dastgohlari; elektr-maishiy mashinalar va uskunalar; maishiy radioelektron apparatura; maishiy hisoblash va ko'paytirish texnikasi; foto- va kinoapparatura; telefon apparatlari va faksimil apparatura; elektr-musiqqa asboblari; elektron o'yinchoqlar).

12. Hayvonlar va o'simliklar.

3.23. Xaridor tegishli sifatli Mahsulot voz kechganda, Mahsulotni kuryerlik orqali yetkazib berish xizmatlari to'lovi qaytarilmaydi.

Sifatsiz Mahsulotni qaytarish va almashtirish

3.24. Mahsulotda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, agar ular Sotuvchi tomonidan aytib o'tilmagan bo'lsa, Xaridor o'z xohishiga ko'ra quyidagi huquqlarga ega:

- o'xshash markali (ayni bir modeldagi va (yoki) artikuldagi) mahsulotga almashtirishni talab qilish;
- xarid narxini tegishlicha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) xuddi shunday mahsulotga almashtirishni talab qilish;
- xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni talab qilish;
- Mahsulotning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki ularni Xaridor yoki uchinchi shaxs tomonidan tuzatishga qilingan xarajatlarini qoplanishini talab qilish;
- oldi-sotdi shartnomasini bajarishdan bosh tortish va Mahsulot uchun to'langan pul miqdorini qaytarishni talab qilish.

3.25. Sotuvchining talabiga ko'ra va uning hisobidan Xaridor kamchiliklari bo'lgan Mahsulotni Sotuvchiga qaytarishi kerak.

3.26. Agar Mahsulotning kamchiliklari kafolat muddati yoki yaroqlilik muddati davomida aniqlangan bo'lsa, Xaridor Sotuvchiga Bitimning 7.1-bandida nazarda tutilgan tartibda yuqorida sanab o'tilgan talablarni qo'yishga haqli. Kafolat muddati olti oydan kam belgilangan va Mahsulotning kamchiliklari Xaridor tomonidan kafolat muddati tugagandan so'ng, biroq mahsulot Xaridorga topshirilgan kundan boshlab olti oy ichida aniqlangan hollarda, Xaridor Mahsulotning kamchiliklari u Xaridorga topshirilgunga qadar yoki shu paytgacha yuzaga kelgan sabablarga ko'ra paydo bo'lganligini isbotlasa, Sotuvchi javobgar bo'ladi. Bunda Xaridorning tashabbusi bilan va uning hisobidan mustaqil ravishda o'tkazilgan ekspertiza xulosasi dalil sifatida bo'lishi mumkin.

Kafolat muddati tugagandan so'ng, Sotuvchi mahsulotning har qanday kamchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

Humans kafolat muddatini belgilashga haqli emasligi sababli, uni ishlab chiqaruvchi yoki Sotuvchi belgilaydi. Mahsulotning kafolat muddati to'g'risidagi ma'lumotlar Mahsulot kartochkasida (mavjud bo'lsa) ko'rsatiladi.

3.27. Mahsulotni qaytarish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda Sotuvchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Mahsulotni yetkazib berish va Mahsulotni olish

3.28. Mahsulotni Xaridorga yetkazib berish Buyurtmani rasmiylashtirishda kelishilgan va Xaridor tomonidan Mobil ilovada ko‘rsatilgan manzil va muddatlarda amalga oshiriladi. Humans yoki Sotuvchi Mahsulotni kuryerlik orqali yetkazib berish amalga oshiriladigan hududni cheklash huquqiga ega. Yetkazib berish hududi haqidagi ma’lumotlar Mahsulot kartochkasida yoki Mobil ilovadagi Sotuvchi haqidagi ma’lumotlarda aks ettiriladi.

3.29. Buyurtma Xaridor tomonidan u tanlagan yetkazib berish muddati davomida qabul qilinishi kerak.

3.30. Xaridorning ushbu bitimning 3.28-bandida belgilangan muddatda Buyurtmani olmaganligi va kuryerlik orqali yetkazib berishda Mahsulotni qabul qilish uchun boshqa zarur harakatlarni amalga oshirmaganligi Xaridorning Mahsulotdan voz kechishi deb hisoblanadi. Bu holda Buyurtmani qaytarish rasmiylashtiriladi va Xaridor tomonidan qabul qilinmagan Mahsulotni yetkazib berish uchun Sotuvchining xarajatlari chegirilgan holda Mahsulot uchun to‘langan pul mablag‘larini qaytarish amalga oshiriladi. Mahsulotga buyurtma berish vaqtida Xaridor tomonidan to‘langan pulli yetkazib berishda Sotuvchining yetkazib berish xarajatlari Buyurtmada ko‘rsatilgan yetkazib berish qiymatiga teng bo‘ladi. Agar yetkazib berish yopiq hududga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, Xaridor kuryerning yetkazib berish joyiga yetib borishini ta’minlashi kerak.

3.31. Mahsulot tegishli Buyurtma maqomi "Yetkazib berildi"ga o‘zgargan paytda Xaridorga topshirilgan (yetkazib berilgan) deb hisoblanadi, bu haqidagi ma’lumot Xaridorga SMS yoki push-bildirishnomada yuboriladi, shuningdek, Mobil ilovada ko‘rsatiladi. Agar Xaridor buyurtma holatining "Yetkazib berildi"ga o‘zgarishiga rozi bo‘lmasa, u bu haqida darhol Humans kompaniyasiga xabar berishi shart, lekin har qanday holatda ham buyurtma holati o‘zgargan kundan boshlab bir kundan kechiktirmay.

3.32. Mahsulotni yetkazib berishning aniq narxi Buyurtmani rasmiylashtirish paytida aniqlanadi va Xaridor tomonidan Buyurtma rasmiylashtirilgandan so‘ng o‘zgartirilishi mumkin emas, narxni o‘zgartirish Xaridor bilan kelishilgan holat bundan mustasno.

3.33. Buyurtmani bajarishdagi kamchiliklarga quyidagilar kiradi:

- Mahsulotning kartochkadagi tavsifga mos kelmasligi/o‘lchami/rangi to‘g‘ri kelmasligi va hok.;
- Mahsulotning to‘liq butlanmaganligi;
- Mahsulotning bo‘sh o‘rami;
- Buyurtmada bir yoki bir nechta Mahsulotning yo‘qligi;
- Mahsulot mexanik shikastlangan/foydanish izlari bilan/buzilgan va hokazo holatda kelgan.

3.34. Agar Xaridor Buyurtmani qabul qilishda uni tekshirmagan bo‘lsa, Sotuvchi yoki Humans faqat Buyurtmani bajarishdagi kamchiliklar uchun javobgar bo‘ladi, agar Xaridor ular Buyurtmani olishdan oldin yuzaga kelganligini isbotlasa.

3.35. Agar Buyurtmada 18+ mahsulotlar mavjud bo‘lsa, kuryer shaxsni tasdiqlovchi hujjatni talab qilishi mumkin.

4. XARIDORGA PUL MABLAG’LARINI QAYTARISH

4.1. Xaridor Mahsulotni qaytarishni amalga oshirgan va pul mablag’larini qaytarishni talab qilgan hollarda, Sotuvchi unga pul mablag’larini qaytarishni ushbu Sharhnomaga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda amalga oshiradi.

4.2. Mahsulot uchun pul mablag’larini qaytarish naqd yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Mahsulot uchun pul mablag’larini qaytarishning aniq usuli Sotuvchi tomonidan belgilanadi. Bank kartasi bilan to‘langan Mahsulot uchun pulni qaytarish xuddi shu bank kartasiga amalga oshiriladi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Xaridorning huquq va majburiyatları:

5.1.1. Mobil ilovada uning login va parolidan foydalangan holda amalga oshirilgan har qanday harakat Xaridorning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan harakat deb hisoblanishini tushunadi.

5.1.2. Marketpleysda Mobil ilovada harakatlarni amalga oshirish orqali ushbu Bitim matni bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi va uning shartlarini bajarish majburiyatini oladi.

5.1.3. Tanlangan Buyurtmaning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini (miqdor, tanlangan Mahsulot, Mahsulot miqdori, manzil va yetkazib berish muddati va hokazo) to‘lov amalga oshirilgunga qadar sinchkovlik bilan tekshirish majburiyatini oladi.

5.1.4. O‘z login va parolini uchinchi shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi va shu orqali login va parolning xavfsizligi uchun mustaqil ravishda javobgar bo‘ladi.

5.1.5. Mobil ilovada o‘zi haqidagi haqqoniy, aniq va to‘liq ma’lumotlarni taqdim etishi va ushbu ma’lumotlarni yangilab turishi hamda o‘zi haqidagi ishonchli ma’lumotlarni (FISH, aloqa telefonlari, elektron pochta manzili) va Mahsulotni yetkazib berish manzilini taqdim etishi kerak.

5.1.6. Xaridorning login va parolidan foydalangan holda Mobil ilovaga ruxsatsiz (Xaridor tomonidan ruxsat etilmagan) kirishning har qanday holati va/yoki maxfiylik va Mobil ilovaga kirishning har qanday buzilishi (buzilishiga shubha) haqida Humans’ni Mobil ilova chatida yoki 1234 raqami orqali darhol xabardor qilishi shart.

5.1.7. Marketpleys yordamida sotib olingan Mahsulotlarning sifati, shuningdek, yetkazib berish bo‘yicha barcha da‘volar tegishli Sotuvchiga taqdim etilishini tushunadi.

5.1.8. Marketpleysdan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya qilishga majburdir.

5.1.9. Buyurtma tasdiqlangunga qadar Mahsulot tavsifi, to‘lov va yetkazib berish shartlari bilan tanishib chiqish.

5.1.10. Mahsulotni ushbu Bitimda ko‘rsatilgan muddatlarda qabul qilishi va to‘lashi kerak.

5.1.11. Ushbu Bitim shartlariga, Marketpleysda o'tkaziladigan aksiyalar qoidalariga va ushbu Bitimda ko'rsatilgan boshqa takliflarga rioya qilishi kerak.

5.1.12. Marketpleysning to'g'ri ishlashi va Sotuvchilar, Mahsulotlarning joylashuvi hamda marketing maqsadlari haqida ma'lumotlarni ko'rsatish uchun Humans kompaniyasiga o'z geopozitsiyasi haqidagi axborotni taqdim etishga rozi. Xaridor o'zining maxsus abonent qurilmasi sozlamalarida o'z geopozitsiyasi haqidagi axborotni taqdim etishdan bosh tortishi mumkin.

5.1.13. Marketpleysdan foydalanganda, Xaridor Humans va/yoki Sotuvchidan aloqa vositalari (jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, SMS va push-xabarlar, elektron pochta, telefon aloqasi) va boshqa turdag'i tarqatma xabarlar va ogohlantirishlardan foydalangan holda ma'lumot va reklamalarni olishga rozilik beradi.

5.1.14. Naqd pulsiz to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Xaridor ushbu Bitimni, To'lov hamkorini yoki Operatorning taklifini buzganligi yoki Marketpleys interfeyslarida to'lovni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan harakatlarni bajarmaganligi yoxud pul mablag'larining yetarli emasligi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno bo'lib, Xaridor Humans kompaniyasiga Bitimning 7.1-bandida nazarda tutilgan tartibda murojaat qilishga, agar masala hal etilmagan bo'lsa, To'lov hamkoridan To'lov hamkorining taklifida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda kompensatsiya talab qilishga haqli.

5.1.15. Humans kompaniyasidan so'rov olingan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmay Xaridor tomonidan to'lov amalga oshirilganligini, ushbu Bitim Xaridor tomonidan lozim darajada bajarilganligini tasdiqlovchi, shuningdek, Marketpleysdan foydalanishda Xaridorning harakatlarini tushuntiruvchi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

5.1.16. Kelishuvni bajarish, tanlovlari, aksiyalar o'tkazish, Xaridorni xabardor qilish hamda boshqa shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirish, Humans kompaniyasining qonuniy huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish hamda Marketpleys faoliyatini ta'minlash maqsadida Xaridor Humans kompaniyasiga mutlaq huquqning butun amal qilish muddati davomida barcha mumkin bo'lgan axborot manbalarida o'zi internet tarmog'ida ommaviy ravishda qoldirgan fotosuratlar, mahsulotlarga bildirilgan fikr-mulohazalar matnlaridan har qanday usulda foydalanish, shuningdek, bunday huquqni muallifning ismini ko'rsatgan yoki ko'rsatmagan holda uchinchi shaxslarga o'tkazish uchun hamma joyda amaldagi muddatsiz huquqni beradi.

5.2. Humans huquqlari va majburiyatları:

5.2.1. Marketpleysdan foydalangan holda noqonuniy va insofsiz harakatlarni aniqlash va oldini olish uchun har qanday oqilonaga choralarini ko'rish huquqiga ega.

5.2.2. Xaridorning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (skaner nusxasi) va Mahsulotning fotosuratini talab qilish huquqiga ega.

5.2.3. Xaridor ushbu Bitim shartlarini yoki aksiyalarda ishtirok etish qoidalarini buzgan taqdirda Buyurtmani bekor qilishga haqli.

5.2.4. Xaridordan olingan ma'lumotlardan Xaridorga Marketpleys xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan Mahsulotni yetkazib berishni tashkil etish, marketing, reklama maqsadlari uchun

Humans va/yoki Sotuvchilardan, Marketpleys Xaridorlarining xatti-harakatlari ma'lumotlarini umumlashtirish va tahlil qilish hamda Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosatida belgilangan boshqa maqsadlarda foydalanish huquqiga ega.

5.3. Sotuvchining huquq va majburiyatları:

5.3.1. Sotuvchi Xaridorga Mahsulotni Marketpleysda joylashtirilgan shartlarda sotishi va yetkazib berishga buyurtma berganda, Buyurtmada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq Mahsulotning yetkazib berilishini ta'minlashi shart.

5.3.2. Ushbu Bitim shartlari yoki aksiyalarda ishtirok etish qoidalari buzilgan taqdirda, Mahsulotni Xaridorga mulki qilib berishni rad etish huquqiga ega.

6. JAVOBGARLIKNI CHEKLASH

6.1. Humans Market "qanday bo'lsa, shundayligicha" (as is) taqdim etiladi, ya'ni Marketpleysni o'rnatish, yangilash, qo'llab-quvvatlash va ishlatalish jarayonida yuzaga keladigan muammolar (jumladan, boshqa dasturiy mahsulotlar (paketlar, drayverlar va boshqalar) bilan muvofiqlik muammolari, Marketpleysdan foydalanish natijalarining Xaridorning kutganlariga mos kelmasligi va boshqalar) uchun Humans javobgar emasligini anglatadi.

6.2. Xaridor Marketpleysning Xaridor foydalanadigan boshqa dasturiy ta'minot bilan nomuvofiqligi va ziddiyatlari bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolalar uchun shaxsan javobgar ekanligini tushunadi.

6.3. Humans Xaridor yoki uchinchi shaxslarga ularning Marketpleysdan foydalanishi natijasida yoki Marketpleys faoliyati bilan bog'liq holda yetkazilgan har qanday zarar, jumladan, yo'qotilgan foya, ma'naviy va boshqa zararlar, shu jumladan, Marketpleysda joylashtirilgan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va harakatlar bilan bog'liq zararlar uchun javobgar emas, qoplamaydi yoki mas'uliyatni olmaydi.

6.4. Humans Xaridor va Sotuvchi o'rtasida Marketpleysdan foydalanish orqali tuzilgan bitimlar, shu jumladan Xaridor Marketpleysdagi xaridlarni to'lash uchun foydalanadigan uchinchi tomon xizmatlari (to'lov tizimlari xizmatlari, to'lov hamkor va boshqalar) uchun javobgar emas.

6.5. Humans Sotuvchilar va uchinchi shaxslar tomonidan Marketpleysga joylashtirilgan, Xaridor Marketpleysni ishlatalgan holda foydalanadigan har qanday ma'lumot, materiallar, shuningdek, Marketpleys yoki kontentning mavjudligi va ulardan Xaridor foydalanishining oqibatlari uchun javobgar emas.

6.6. Noqonuniy harakatlar natijasida Mobil ilovaga kirgan uchinchi shaxslar tomonidan Xaridor nomidan unda amalga oshirilgan harakatlar uchun Humans javobgar bo'lmaydi.

6.7. Humans Marketpleys doirasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, shuningdek, quyidagilar natiysiada yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgar emas:

6.7.1. Xaridor yoki uchinchi tomonning Marketpleysni tashkil etish uchun foydalaniladigan Humans, Sotuvchilar, To'lov hamkorlari yoki uchinchi tomon dasturiy ta'minoti, uskunalarining axborot xavfsizligi yoki normal ishlashini buzishga qaratilgan noqonuniy harakatlari;

6.7.2. Marketpleysni tashkil qilish uchun ishlataladigan Humans uskunasining dasturiy ta'minotidagi kod xatolari, kompyuter viruslari va boshqa begona kod fragmentlari tufayli Marketpleysdagi nosozliklar;

6.7.3. To'lov hamkor yoki Sotuvchilarning uskunalari va/yoki dasturiy ta'minotidagi nosozliklar, shuningdek, To'lov hamkor yoki Sotuvchilarning boshqa harakatlari va/yoki harakatsizligi natijasida Humans o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olmaganligi;

6.7.4. Uchinchi shaxslar, shu jumladan to'lov hamkorining harakatlari;

6.7.5. Xaridor tomonidan taqdim etilgan bank kartasi, elektron pul hisobi, telefon raqami, manzil ma'lumotlarining noto'g'riliği.

7. XARIDORLARNING E'TIROZLARI

7.1. Xaridorlarning Marketpleys ishining umumiyligi masalalari bo'yicha talablari mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati tomonidan quyidagi kanallar orqali ko'rib chiqiladi: Mobil ilovaning qo'llab-quvvatlash chatiga murojaat qilish, 1234 raqamiga qo'ng'iroq qilish, elektron pochta (aloqalar <https://market.humans.uz/> saytidagi ko'rsatilgan). Xaridorlarning Mahsulotlar bilan bog'liq talablari Sotuvchiga Mobil ilovadagi Sotuvchi haqidagi ma'lumotlarda ko'rsatilgan bog'lanish usullari orqali yuboriladi.

7.2. Agar Xaridor Marketpleys faoliyati bo'yicha nizoli vaziyatning hal etilishiga rozi bo'lmasa, e'tirozlar quyidagi usullar orqali bildirilishi mumkin:

7.2.1. Kelishuv muqaddimasida ko'rsatilgan Humans manziliga pochta orqali.

7.2.2. O'z qo'li bilan imzolangan hujjatning elektron namunasi (skaner) ko'rinishida elektron pochta orqali.

7.3. E'tiroz erkin shaklda tuzilib, unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart:

- Buyurtma raqami;
- muammo ta'rifi;
- Xaridorning talabi.

8. BITIMNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

8.1. Humans ushbu Bitimni bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega. Shartnoma <https://market.humans.uz/> saytidagi Humans tegishli bildirishnomasida ko'rsatilgan paytdan boshlab o'zgartirilgan hisoblanadi. Agar o'zgartirishlar kuchga kirgandan so'ng Xaridor Marketpleysdan foydalanishni davom ettirsa, bunday o'zgartirishlar Xaridor tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

8.2. Humans <https://market.humans.uz/> saytidagi ma'lumotlarni joylashtirish orqali Xaridorlarni xabardor qilgan holda ushbu Bitimning amal qilishini va Marketpleys faoliyatini bir tomonlama tartibda to'xtatish huquqiga ega.

8.3. Agar Xaridorning firibgarlik harakatlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Xaridorga nisbatan firibgarlik harakatlari sodir etilganligiga shubha qilish uchun asoslar mavjud bo‘lsa, Humans har qanday Xaridorni ogohlantirishsiz Marketpleys Xaridorlari safidan chiqarib tashlash yoki Xaridorning Marketpleysdan foydalanishini cheklash huquqiga ega, shu jumladan quyidagi usullar orqali:

- Mobil ilovada biriktirilgan kartalardan har qanday moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirishni bloklash;
- Mobil ilovada biriktirilgan kartalarni uzish;
- Mobil ilovaga kirish uchun parolni majburiy tiklash,

shuningdek, agar Xaridor:

- Bitimga rioya qilmasa;
- Marketpleysdagi ma’lumotlarni o‘zgartirish yoki Marketpleysdan foydalanishning foydalanuvchi ssenariylarida ko‘zda tutilmagan Xaridorlar, ularning to‘lovlar, Sotuvchilar haqidagi ma’lumotlarni olish uchun dasturiy, apparat yoki boshqa usullardan foydalansa;
- Humans kompaniyasining ishchanlik obro‘siga putur yetkazsa, Humans kompaniyasi haqida noto‘g‘ri ma’lumotlarni tarqatsa;
- firibgarlik harakatlarini, shuningdek, To‘lov hamkori yoki banklar tomonidan firibgarlik yoki firibgarlik amaliyoti sifatida tavsiflangan harakatlarni amalga oshirsa;
- To‘lov hamkoriga yoki istagan uchinchi shaxslarga nisbatan, shu jumladan, agar Xaridorning xatti-harakatlari ustidan istagan uchinchi shaxslardan shikoyatlar kelib tushsa, insofsiz harakatlar sodir etsa;
- Humans, Sotuvchilar yoki To‘lov hamkoriga chalg‘ituvchi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etsa;
- naqd pul to‘lash sharti bilan Buyurtma qilsayu kuryerni kutib olmasa, to‘lashdan bosh tortsa va boshqa shunga o‘xshash harakatlarni amalga oshirsa;
- Mahsulotning nostandard Buyurtmalarini (miqdori bo‘yicha chegaradan tashqari uy xo‘jaliklari iste’moli uchun noodatiy Buyurtmalar) amalga oshirib oshirib, keyin ularni bekor qilsa;
- Buyurtmani qabul qilsa, so‘ngra Mahsulotning sifati va/yoki miqdori bo‘yicha e’tirozlar bildirsa, bu e’tiroz tekshiruvi natijasida tasdiqlanmasa;
- mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatiga buyurtma bilan bog‘liq bo‘lmagan shikoyatlar bilan murojaat qilsa, odobsiz xatti-harakatlar, behayo so‘zlarni ishlatsa, kuryerga nisbatan jismoniy kuch ishlatsa.

Yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni Humans yuqorida ko'rsatilgan yetarli asoslar mavjud bo'lganda, o'z ixtiyoriga ko'ra va ular haqida Xaridorni oldindan xabardor qilmasdan amalga oshirish huquqiga ega.

8.4. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini bekor qilish Xaridorning Marketpleysdan foydalanishini to'xtatishiga olib keladi, chunki Humans Xaridorga Marketpleysdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish imkoniyatini yo'qotadi.